



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 182 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramazonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'liqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	



REZERVGA BO'SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK REINTEGRATSIYASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY- METODOLOGIK TAHLILI

Ikmatullayev G'. Z.

O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti
 "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrasini
 boshlig'ining o'rinbosari, p. f. d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining o'ziga xos jihatlari, xorijiy tajribaning kuchli va zaif tomonlari ilmiy-metodologik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, har bir ilmiy qarashning amaliy ahamiyati, ilg'or xorijiy markazlarning metodologik yondashuvlarini milliy tizimga tatbiq etishning ilmiy asoslarini bayon etgan holda, psixologik to'siqlar va ularni bartaraf etishning majmuaviy modellari sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchilar, reintegratsiya, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xalqaro tajriba, ijtimoiy identifikatsiya.

Abstract: This article provides a scientific and methodological analysis of the features of the socio-psychological reintegration of military personnel discharged into the reserve, as well as the strengths and weaknesses of foreign experience. Furthermore, the practical significance of each scientific approach is examined by outlining the scientific foundations for adapting the methodological approaches of advanced foreign centers to the national system, while also analyzing psychological barriers and comprehensive models for overcoming them.

Key words: military personnel, reintegration, socio-psychological adaptation, research institutions, international experience, social identification.

Аннотация: В данной статье на научно-методологическом уровне анализируются особенности социально-психологической реинтеграции военнослужащих, уволенных в резерв, а также сильные и слабые стороны зарубежного опыта. Кроме того, рассматривается практическая значимость каждого научного подхода с изложением научных основ адаптации методологических подходов передовых зарубежных центров к национальной системе, а также анализируются психологические барьеры и комплексные модели их преодоления.

Ключевые слова: военнослужащие, реинтеграция, социально-психологическая адаптация, научно-исследовательские учреждения, международный опыт, социальная идентификация.

KIRISH

Dunyoda geosiyosiy noaniqliklar fonida mudofaa uchun global xarajatlar o'sishda davom etmoqda. 2025-yilda mudofaa uchun global xarajatlar 2024-yildagi 2,48 trillion dollardan 2,63 trillion AQSH dollariga yetdi. Real ifodada xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 2,5 % ga oshdi. Garchi bu ko'rsatkich so'nggi yillarda kuzatilgan 7–8 foizlik o'sishdan pastroq bo'lsa-da, o'tgan yilgi rekord xarajatlar o'sish tendensiyasining davom etganligini ko'rsatdi [3]. Ushbu xarajatlarning ortib borishi davlatlarning nafaqat qurollanishga, balki harbiy kadrlarning ijtimoiy va psixologik barqarorligini ta'minlashga ham (chunki inson omili kasbiy samaradorlikning asosidir) bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini anglatadi.

Jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar [4] ham harbiy sohada islohotlar faqat qurollanish emas, balki inson kapitali va ruhiy salomatlik asosida qurilishi kerakligini isbotlamoqda. Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi muammosi zamonaviy davlat boshqaruvi va xavfsizlik tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmat davomida shakllangan qat'iy harbiy intizom va iyerarxik bo'ysunish fuqarolik hayotining moslashuvchan va noaniq muhitiga zid keladi. Bu esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarda shaxslilik xususiyatlariga ta'sirning yaqqol namoyon bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, harbiy xizmatchilardagi xarakter xususiyatlarining qayta moslashish jarayonidagi aksentuativ jihatlarini kuchayib, jahldorlik, qaysarlik, dangasalik, o'ta tartiblilik kabi qator xususiyatlar yanada yorqinroq namoyon bo'la boshlaydi. Shuningdek, o'ta jismoniy faollikning to'satdan to'xtashi nerv tizimining zo'riqishiga hamda ichki motivatsion muhitning susayishiga olib keladi. Mazkur o'zgarishlar harbiy xizmatchilarning kasbiy jihatdan o'zini qayta anglashi, tashqi muhitdagi shaxslararo munosabatlarda yangi rollarga moslashishi uchun ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash va psixoprofilaktik yondashuvlarni talab etadi. Zero, sobiq harbiy xizmatchilarda dezadaptatsiya belgilarining yorqin namoyon bo'lishi shaxslilik xususiyatlaridagi psixologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda fuqarolik hayotidagi shaxslararo munosabatlardagi nizoli vaziyatlar, oila a'zolari hamda farzandlar bilan munosabatlarni qayta yo'lga qo'yishning o'ziga xos psixologik jihatlarini ham maxsus yondashuvlarni talab etadi.

Bu davrda harbiy xizmatchilarda jarohatdan keyingi stressli buzilishlar (JKSB), ya'ni harbiy hayotdan fuqarolikka o'tish davridagi inqiroz bilan bog'liq hissiy buzilishlar kuzatiladi. Shuningdek, muloqot taktikasida buyruqbozlik uslubining o'rnini iltimos, tashakkur va o'zaro tushunishga asoslangan kommunikativ yondashuv egallashi ham o'ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, somatik o'zgarishlar bilan bog'liq jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda ikkinchi o'tish davrida turli kasbiy stresslar natijasida yuzaga kelgan agressiyaga moyillik, o'ta faollik va talabchanlikning aksentuativ namoyon bo'lishi yurak-qon tomir hamda ishemik kasalliklar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, fuqarolik hayotiga qaytgan shaxsning ijtimoiy muhit, oila va mehnat jamoasi bilan aloqalarini qayta tiklashi nafaqat individual-psixologik ko'makni, balki maxsus reintegratsiya dasturlarini ishlab chiqishni ham taqozo etadi. Muammoni o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali psixologik adaptatsiya bo'lmasa, zaxiradagi kadrlarning intellektual va kasbiy salohiyatidan foydalanish imkoniyati pasayib, ularda ijtimoiy begonalashish hissi kuchayadi. Bu boradagi E.M. Fredning fikricha, harbiy tuzilma xizmatchining uy-joy, tibbiy xizmat va oziq-ovqat kabi barcha bazaviy ehtiyojlarini qoplaydi. Xizmatdan bo'shatilgach esa ushbu "himoya qobig'i"ning yo'qolishi kuchli stress manbaiga aylanadi [5].

Bizningcha, harbiy xizmatchilarning psixologik holatini tushuntirishning asosiy konseptual jihatlaridan biri shundaki, ulardagi shaxslilikka kuchli ta'sirni "imtiyozlardan mahrum bo'lish" emas, balki "ijtimoiy ekzistensial inqiroz" orqali izohlash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy sharoitda rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli moslashtirish va ularning psixososial barqarorligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Harbiy xizmat davomida yuzaga keladigan psixologik zo'riqish, destruktiv axborot ta'sirlari va emotsional stress shaxsning ichki psixik tizimida deformatsiyalarni keltirib chiqarib, xizmatdan keyingi davrda ijtimoiy moslashuv, identitet transformatsiyasi hamda kommunikativ aloqalarda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini ilmiy-metodologik jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonni tushuntirishda destruktiv ta'sir mexanizmlariga oid yondashuv metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, destruktiv axborotlar psixologik transformatsiya orqali shaxsning axloqiy-ruhiy holatini defunksional darajaga olib kelib, kognitiv buzilishlar, emotsional disbalans va xulqiy og'ishlarni yuzaga keltiradi. Bu omillar rezervga bo'shatilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuv resurslarini pasaytirib, reintegratsiya jarayonini murakkablashtiradi [2].

Shu nuqtai nazardan, reintegratsiya psixologik dezadaptatsiyani bartaraf etish va shaxsning ichki resurslarini tiklashga qaratilgan tizimli jarayon sifatida talqin etiladi. Unda sanogen tafakkur destruktiv fikrlarni qayta ishlash va realistik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilsa, psixologik immunitetning kognitiv, regulativ va refleksiv funksiyalari yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvni ta'minlaydi.

Umuman olganda, ushbu jarayon quyidagi konseptual zanjirda namoyon bo'ladi: destruktiv ta'sir – psixologik dezadaptatsiya – sanogen tafakkur orqali tiklanish – psixologik immunitetni mustahkamlash – ijtimoiy-psixologik reintegratsiya. Bu yondashuv harbiy xizmatchilarni jamiyatga samarali integratsiyalashning ilmiy asosini tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQShning Purdue University qoshidagi Harbiy oila tadqiqot instituti (Military Family Research Institute at Purdue University, USA) harbiy oilalarni tadqiq etishga ixtisoslashgan bo'lib, harbiy xizmatchilar, faxriylar va ularning oila a'zolari muammolarini hal etish hamda hayot tarzini yaxshilashga xizmat qiladigan davlat siyosati yo'nalishlari, metodlari va davlat dasturlarini ishlab chiqadi. Bunda xizmat joyining ko'chishi, oiladan uzoqda



bo'lish, xizmat yuklamalarining yuqoriligi kabi harbiy hayotning jiddiy muammolariga duch kelayotgan harbiy oilalar masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, harbiy oilalarning o'tish davridagi munosabatlariga xos jihatlar, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi shaxslararo jinsiy tajovuzkorlik omillari, oiladagi zo'rvonlik modellari, harbiy xizmatchilar xizmat joyining o'zgarishi (rotatsiya) jarayonida harbiy oilalar, jumladan, harbiy xizmatchilar farzandlari munosabatlaridagi o'zgarishlar sikli, konfidensiallik hamda oila a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlashi masalalari tadqiq etiladi ^[10].

Harbiy xizmatchilarda rezervga bo'shatilgungacha bo'lgan asosiy faoliyat davrida kun tartibiga qat'iy amal qilinishi ularda kasbiy zo'riqishlar bilan bir qatorda rigid xulq-atvorni shakllantirib, hissiy zo'riqishlarning kuchayishiga olib kelishi, shuningdek, shaxslararo munosabatlardan ichki qo'rquv va xavotirning nisbatan kuchli bo'lishiga sabab bo'lishi kuzatiladi. Zero, ayrim ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmat faoliyatidan keyingi davrga psixologik jihatdan tayyor bo'lmaslik harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda sobiq harbiy xizmatchi xulqidagi deformatsiyalar, kelajakka ishonchsizlik, o'zidan qoniqmaslik, o'zini o'zi nazorat qila olmaslik hamda shaxslararo munosabatlardagi turli darajadagi nizolar yuzaga kelishi mumkinligi kuzatilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda xizmat davridan keyingi ijtimoiy-psixologik munosabatlardagi o'zgarishlar ko'proq xorijiy tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarni harbiy faoliyatdan keyingi fuqarolik hayotiga reintegratsiya qilish masalasi keng miqyosda, eksperimentlar yordamida tadqiq etilgan.

Mazkur masalalarni milliy muhitimizda ham o'rganishga bugungi kunda ehtiyoj yuqori. Zero, maxsus toifadagi shaxslar sifatida harbiy xizmatchilar o'zlarining psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatdan reintegratsiyalashuvi orqali rezerv davrida ham jamiyat uchun manfaatli bo'lgan qator faoliyatlar bilan shug'ullanishi mumkin.

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchining o'zini shaxs sifatida qayta kashf etishi uchun aynan reintegratsiya davrida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur. Bu, albatta, psixologik profilaktika va psixologik korreksiyaning talab etadi. Aynan shu jihat xorijiy tadqiqotlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish zaruratini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T., 1999. – B. 80.
2. Nurullayev A.A. "Destrktiv ta'sirga tushgan harbiy xizmatchilarni nosog'lom hayot tarzidan qaytarishning psixologik mexanizmlari" diss. avtoref. – T., 2023.
3. Global Defence Spending Continues to Grow Amid Geopolitical Uncertainty // <https://www.iiss.org/online-analysis/military-balance/2026/02/global-defence-spending-continues-to-grow-amid-geopolitical-uncertainty/>
4. Addressing Mental Health Needs Among New York's Recently Separated Veterans: Findings and Policy Implications from RAND's Understanding Veterans in New York Study: Testimony of Jeanne S. Ringel for the Standing Committee on Veterans' Affairs, Standing Committee on Mental Health, and Subcommittee on Women Veterans, New York State Assembly. – November 12, 2025.
5. Markowitz F.E., Kintzle S., Castro C.A. Military-to-civilian transition strains and risky behavior among post-9/11 veterans // *Military Psychology*. – 2023 Jan-Feb. – Vol. 35(1). – P. 38-49. doi: 10.1080/08995605.2022.2065177. Epub 2022-04-20. PMID: 37130561; PMCID: PMC10013504.
6. King's Centre for Military Health Research (KCMHR) // <https://kcmhr.org/about/>
7. About KCMHR // <https://kcmhr.org/about/>
8. <https://kclpure.kcl.ac.uk/portal/en/persons/nicola-fear>
9. <https://www.ptsd.va.gov/>
10. https://www.purdue.edu/hhs/hdfs/directory/faculty/macdermid_wadsworth_shelley.html
11. <https://cimvhr.ca/about-us/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.